# Umumtexnik fanlar



**Turkmenov Xasan Ishimovich**

Kafedra mudiri, dotsent

Tel.:  +998-71-237-09-72

Email: kh.turkmenov@tiiame.uz

Umumtexnik fanlar kafedrasi dastlab Metallar texnologiyasi kafedrasi nomi bilan 1934 yili tashkil etilgan. Kafedra negizida 1976 yilda Qishloq xoʻjaligi mashinalari texnologiyasi kafedrasi ish boshlagan. Metallar texnologiyasi kafedrasining birinchi tashkilotchisi, asoschisi va rahbari dotsent M.D.Livshis boʻlgan. «Qishloq xoʻjaligi mashinalari texnologiyasi» kafedrasiga 1976–1983 yy. t.f.n., dos. A.3.Rahmonzoda, 1983–1993 yy. t.f.n., dos. T.A.Mirsaidov, t.f.d., prof. M.A.Levitin boshqarganlar. Oʻtgan davr mobaynida kafedraga (1952–71 yy.) dos. V.D.Avagimov, (1971–76 yy.) dos. A.Z.Rahmonzoda, (1976–77 yy.) dos. Sh.U.Yuldashev, (1977–82 yy.) dos. N.A.Anoxin, (1983–88 yy.) prof. E.D.Xaykin, (1988–95 yy.) prof. M.T.Balabekov, (1995-96 yy.) dos. U.P.Umurzakov, (1996–99 yy.) dos. X.N.Ibragimov, (1999 – 2016 yy.) dos. X.I.Turkmenov, (2016-2017 yy.) dos. Z.T.Jumaev rahbarlik qilgan. Materiallar texnologiyasi, amaliy mexanika va standartlashtirish kafedrasi 2016 yildan Umumtexnik fanlar kafedrasi deb nomlandi. Hozirgi kunda kafedraga dos. X.I.Turkmenov rahbarlik qilib kelmoqda. Soʻnggi 2 yilda kafedrada 3 ta darslik, oʻquv qoʻllanma, 100 ta ilmiy maqolalar, xorijiy va respublika jurnallarida chop etilgan hamda 15 ta patent olingan. Kafedraning rivoji va taraqqiyotida dos. V.D.Avagimov, dos. A.G.Koshevnikov, prof. M.A.Levitin, akademik Sh.U.Yuldashev, prof. Gʻ.Sh.Zokirov, dos. N.A.Anoxin, prof. E.D.Xaykin, prof. M.T. Balabekov, prof. U.P.Umurzakovlar katta hissa qoʻshganlar. Kafedrada iqtidorli talabalarning «Yosh mexanik» toʻgaragi tashkil etilgan. Talabalar tomonidan kafedra professor-oʻqituvchilari rahbarligida 100 tadan ortiq maqola nashr etilgan, respublika fan olimpiadalarida talabalar sovrindor oʻrinlarni egallab kelmoqda. Kafedraga 2018-2020 oʻquv yilida 8 ta zamonaviy laboratoriya stendlari oʻrnatildi. Ularda «Mashina detallari va loyihalash asoslari» fanidan 30 dan ortiq laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatlari mavjud. Kafedrada taʼlim, fan va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyaga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bugungi kunda kafedrada Chelyabinsk va Amurdagi Komsomolsk davlat texnika universitetlari bilan hamkorlikda ilmiy va ilmiy-metodik ishlar olib borilmoqda. «Oʻzstandart» agentligi «Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish» ilmiy-tadkikot instituti, Turin politexnika institutining Toshkent filiali, «Toshkent qishloq xoʻjalik texnikalari zavodi» OAJ, «Toshkent quvur zavodi» QK, Toshkent davlat texnika universiteti (TDTU), Toshkent Davlat agrar universiteti (TashDAU), «BMKB Agromash» korxonalari bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan. Xozirgi kunda kafedrada Xitoy Xalq Respublikasining Anxui universittetidan Kimsanov Shoxijaxon va Janubiy Koreyaning Sun Moon universitetidan Amanov Avazlar oʻrindosh sifatida ishlab kelmoqda.

Qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash fakulteti   O'qitiladigan fanlar   Ilmiy